ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JAROHATLANISHLARNING TARQALISHI VA UNING PROFILAKTIKASIDAGI AYRIM O‘ZIGA XOS TIBBIY-IJTIMOIY XUSUSIYATLAR TAXLILI

**To‘liyev Ravshon Rashidovich**
Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali Tibbiyot fanlari kafedrasi assistenti
Osiyo Xalqaro universiteti Xorazm filiali
https://doi.org/10.5281/zenodo.22862743

**Annotatsiya**

Maqolada bolalar orasida ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda jarohatlanishlar, aniqrog‘i turmushdagi jarohatlanishlarning tarqalishi va unga ta’sir qilivchi omillarning tibbiy-ijtimoiy jihatlariga yo‘naltirilgan ilmiy ishlarning natijalari o‘rganilib taxlil qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlar bugun dunyoning barcha davlatlarida, jumladan mamlakatimizda, xususan tadqiqotimiz amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan Xorazm viloyatida ham o‘ta muhim tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda va ayrim holatlarda o‘sish xususiyatiga ega. JSST ning bergan ma’lumotiga qaraganda yiliga dunyoda 850 mingdan ortiq 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar har xil turdagi jarohatlanishlar, zaharlanishlar va tashqi muhitning boshqa ta’sirlari sababli dunyodan o‘tadilar. Minglab bolalar jarohatlanishlar tufayli bir umrga nogiron bo‘lib qoladilar. Maktab yoshigacha davrdagi bolalarda jarohatlanishlarning asosiy sabablarida ko‘pchilik mamlakatlarda o‘xshashliklar bo‘lsada, ayrim turmush tarzlari bilan bog‘liq o‘ziga xosliklarga ham ega va ko‘p hollarda ota-onalar tomonidan ayniqsa, 1-3 yoshdagi bolalarning qiziqishlarini inobatga olmaslik va e’tiborsizliklari natijasida yuzaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar, maktabgacha yoshdagi bolalar, turmushdagi jarohatlanish, omillar, tarqalganlik, tibbiy-ijtimoiy, nogironlik , o‘lim.

**Annotatsiya**

В стате изучаются и анализируются результаты научных работ, посвящённых медико-сотсиалным аспектам травматизма среди детей, особенно детей дошколного возраста, а именно распространённост бытового травматизма и факторов, влияющих на него.

Бытовой травматизм среди детей дошколного возраста сегодня остаётся одной из важнейших медико-сотсиалных проблем, а в ряде случаев он возрастает во вцех странах мира, в том числе, и в нашей стране, особенно в Хорезмской области, где планируется проведение наших исследований.

По данным ВОЗ, ежегодно более 850 000 детей в возрасте до 18 лет умирают из-за различного рода травм, отравлений и других воздействий внешней среды. В результате полученных травм тысячи детей остаются инвалидами на всю жизн. Хотя основные причины травматизма у детей дошколного возраста в болшинстве стран схожи, они имеют и спесифические особенности, связанные с определенным образом жизни и во многих случаях обусловлены пренебрежением родителей и интересами детей, особенно детей 1-3- летнего возраста.

**Ключевые слова:** Дети дошколного возраста, бытовой травматизм, факторы, распространённост, медико-сотсиалный, инвалидност, смертност.

**Annotation**

The article analyzes research on medical and social aspects of child traumatism, including domestic traumatism among preschool children and the factors that influence it. Today, domestic injuries are a major medical and social issue for preschool children around the world, including in our country, particularly in the Khorezm region, where our research is focused. According to the World Health Organisation (WHO), every ear, over 850,000 children under 18 ears old die due to injuries, poisoning, and other external factors. While the leading causes of injuries in preschool children are similar across countries, they also have specific characteristics associated with particular lifestyles. In many cases, injuries are caused by parental neglect and children's curiosity, particularly those aged 1-3 ears old.

**Keywords:** preschool children, domestic injuries, factors, prevalence, medical and social, disability, mortality.

**Mavzuning dolzarbligi**

Bolalarda, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar orasida butun dunyoda jarohatlanish va zo‘rovonliklar, ular orasida o‘limning asosiy sabablaridan biri sifatida saqlanib kelmoqda. JSST ning bergan ma’lumotiga qaraganda yiliga dunyoda 850 mingdan ortiq 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar har xil turdagi jarohatlanishlar, zaharlanishlar va tashqi muhitning boshqa ta’sirlari sababli dunyodan o‘tadilar. Minglab bolalar jarohatlanishlar tufayli bir umrga nogiron bo‘lib qoladilar. Uning asosiy qismini avtotransport halokatlari va cho‘kishlar tashkil qiladi. Oxirgi 15 yillarda Rossiya Federatsiyasi bolalarda baxtsiz hodisalar sababli o‘lim darajasi bo‘yicha yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan xududlariga kiradi va har 100 ming bolalarga 21,0-29,9 taga teng bo‘lib, Skandinaviya mamlakatlaridan 3-4 barobar yuqori ekanligi ta’kidlanadi (5,0-9,9/ 100 ming bolaga) [1]. A.M.Vyazmin, A.L.Sannikov va b. larning (2009) [2] ilmiy xulosalariga qaraganda Arxangelsk viloyatida bolalarda jarohatlanishlarning o‘rganilgan 5 yil davomida o‘rtacha 28,7 %ini - turmushdagi, 48,4%ini - ko‘chada olgan jarohatlar tashkil qilgan. Respublikada 0-17 yoshdagi bolalar orasida jarohatlanishlar 2001-2011 yillar davomida o‘sishi kuzatilgan (2001-7122,6 va 2011 - 8572,8/100 ming bolaga). Mualliflarning ta’kidlashlaricha Respublikada bolalar orasida jarohatlanishlarni kamaytirishga Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqora tashkilotlar bilan hamkorliklar, tajriba almashinuvlar natijasida erishish mumkinligi ta’kidlanadi [3]. V.M.Krestyashinning (2003) [4] ilmiy xulosalariga qaraganda, bolalarda turmushdagi jarohatlanishlar jami jarohatlarning 70%ini tashkil qilib birinchi o‘rinda turadi. Muallifning qayd qilishicha bolalarda turmushdagi jarohatlanish, bu bolaning uy sharoitida ya’ni uyda, zinapoyalarda olgan jarohatlari sanaladi. Maktab yoshiga borganda bu kabi jarohatlar darajasi kamayadi. Ayniqsa ko‘krak yoshidagi bolalarda jarohatlarning 20%ini odatda kuyishlar tashkil qiladi. Ammo, ko‘plab adabiyotlarda bolalardagi barcha jarohat turlarini turmushdagi jarohatlarga kiritilib o‘rganiladi va ular jarohatning olingan joyiga qarab tug‘ish jarayonida, turmushda, maktabda, sportda, ko‘chada, shuningdek kuyish, cho‘kish, balandan yiqilish va boshqalarga bo‘lib o‘rganiladi. Muallif bergan xulosaga ko‘ra maktabgacha yoshdagi bolalar

orasida turmushdagi jarohatlanishlarni kamaytirishning eng asosiy usullaridan biri, bu bolalarning hayotiga xavf soluvchi jarayonlarni ularning ota-onalariga batafsil tushuntirish va xavf omillarni oldindan bartaraf qilish sanaladi.

**Tadqiqotning asosiy maqsadi** shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlarning tarqalganligi va uning asosiy sabablariga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar natijalari chop etilgan adabiyotlar, statistik hisobat materiallarni o‘rganish va taxlil qilish asosida, mazkur mavzuning har tomonlama kompleks ijtimoiy-gigienik jihatdan o‘rganilganlik darajasini baholashdan iborat.

**Materiallar va usullar**

Dunyoda, jumladan mamlakatimizda ham keyingi yillarda bolalarda, xususan maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmush sharoitida sodir bo‘layotgan jarohatlar va uning asoratlarini har tomonlama kompleks tibbiy-ijtimoiy jihatlarining ilmiy jihatdan o‘rganilishiga yo‘naltirilgan adabiyotlarni, statistik hisobat materiallarni o‘rganish jarayonida asosan taxliliy va tafsiflovchi usuldan keng foydalanildi.

**Natijalar va muxokamalar**

Maktab yoshigacha davrdagi bolalarda jarohatlanishlarning asosiy sabablarida ko‘pchilik mamlakatlarda o‘xshashliklar bo‘lsada, ayrim turmush tarzlari bilan bog‘liq o‘ziga xosliklarga ham ega va ko‘p hollarda ota-onalar tomonidan ayniqsa, 1-3 yoshdagi bolalarning qiziqishlarini inobatga olmaslik va e’tiborsizliklari natijasida yuzaga keladi. JSST va YuNISEF tomonidan taqdim qilingan ma’ruzada keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo mamlakatlarida yiliga jarohatlanishlar sababli 830 000 bola bevaqt dunyodan o‘tadilar. O‘nlab mln bolalar olingan jarohatlar tufayli nogiron bo‘lib qoladilar. Har yili Kazaxistonda 600 mingdan ortiq aholi jarohat oladilar va ularning 20%ini bolalar tashkil qiladi. Bular asosan, yuqoridan yiqilishlar, kuyishlar va avtotransport avariyalari sababli sodir bo‘layotganligi ta’kidlanadi. O‘g‘il bolalarda jarohatlanishlar 2-3 barobarga yuqori. Muallif bolalarda jarohatlanishni kamaytirishga yo‘naltirilgan profilaktik tadbirlarni uchta yo‘nalishda, ya’ni individual, guruhlashtirilgan va jamoaviy shaklda amalga oshirishni taklif qiladi [5,7].

O.V.Golovko, T.N.Pavlenko va b. larning (2017) [6] o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘tkir zaharlanishlar ko‘proq 0-3 yoshdagi bolalar ulishiga to‘g‘ri kelib - 41%ni tashkil qilsa, maktabgacha yoshdagilar -12,5%ni, 7-15 yoshdagilar -25,8%ni va 15-17 yoshdagilar -21,8%ni tashkil qilganligi aniqlangan. Jumladan tibbiy dori vositalari - 51,9% bilan birinchi o‘rinni, turmushdagi ximiyaviy moddalar bilan zaharlanganlar -18,6% bilan ikkinchi, spirtli ichmliklar va uning surogatlari 16,1% bilan uchunchi va 13,6% har xil zaharlanishlarga to‘g‘ri kelgan. E’tiborlisi shundaki, termik kuyishlarni olganlarning 45,6%i erta yoshdagi bolalarga to‘g‘ri kelgan, har uchta kuyganning birisi bir yoshgacha bolalar bo‘lganligi aniqlangan. Ushbu keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda diyarli barcha turdagi jarohatlanishlar nisbatan yuqori va uni tibbiy-ijtimoiy jihatlarini chuqr ilmiy taxlil qilish zarurligini taqoza etadi.

Bolalarda, jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarda sodir bo‘layotgan jarohatlanishlarning yana bir asosiy sabablaridan biri avtohalokatlar sanaladi. E’tiborlisi shundaki, turmushdagi jarohatlarning yarimidan ko‘pi aynan bolalar kattalar tomonidan qarovsiz qolgan paytlarida oladilar. Oxirgi 10 yilda Kazaxistonda 127 ming avtotransport halokatlari sodir bo‘lgan, natijada 30 mingdan ortiq odam o‘lgan va 151 mingdan ortiq kishi jarohatlanish olgan. Kazaxiston yo‘llarida sodir bo‘lgan avtohalokatlarda bolalarda asosiy jarohatlanishlar 10-14 yoshdagi bolalarga to‘g‘ri kelib, uning 40%i maktabgacha va 60%i maktab yoshidagilarga to‘g‘ri kelgan. Jarohatlanishlarning 47%i kuz va qish oylarida kuning yorug‘ payitida sodir bo‘lgan. Bolalardagi jarohatlanishlar na faqat bolalarning nogiron bo‘lib qolishlariga olib keladi balki, ularning birinchi galda kelgusidagi salomatligiga, kasb tanlashiga, mehnat faoliyatiga, shuningdek ota-onalarining ijtimoiy-ruhiy va iqtisodiy holatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [8]. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida jarohatlanishning yuzaga kelishida, ayniqsa salomatligida nuxsoni mavjud, imkoniyati cheklangan bolalarning yo‘llarda harakatlanishlarida ayrim o‘ziga xosliklar, ya’ni atrofdagi transportlardan chiqayotgan ovozlarni o‘z vaqtida anglamaslik, ko‘rishdagi chegaralanganliklar, maxsus biron-bir moslamalar bilan harakatlanish, yo‘llarda belgilangan qoidalarda belgilangan vaqtlarda harakatlanib ulgurmasliklar ham ayrim hollarda bu kabi bolalarda yo‘l transport hodisalarining nisbatan ko‘proq yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin [9,14]. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida yo‘l transport hodisalari sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarohatlanishlarni kamaytirishning eng muhim mezonlaridan biri bu maktabgacha muassasalarga va ota-onalar uchun maxsus o‘quv dasturlarini kiritish va eng asosiysi mazkur yo‘nalishda oiladagi kattalar va bolalar orasida o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat sanaladi [10]. Ye.N. Savenkova, A.A. Yefimov va b. (2018) [11] larning ilmiy xulosalarida avtohalokatlarda bolalarda jarohatlarning joylashish joylari ularning yoshlariga ko‘p jihatdan bog‘liq va ularning yoshlari oshishi bilan jarohatlarning bosh, oyoq va qo‘llaridagi sinishlar ham oshib borishi ta’kidlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida jarohatlanishlarning sezilarli qismi har xil sabablarga ko‘ra kuyishlar sababli yuzaga keladi. Rossiya Federatsiyasida yiliga 300 mingdan ortiq odam kuyishlar sababli olimdan o‘tadilar va 100 minglab odamlar nogiron bo‘lib qoladilar. Har oltitadan bitta yong‘in holatlari bolalarning ehtiyotsizlik harakatlari sababli sodir bo‘ladi. Bu kabi jarohatlarning oldini olishda ota-onalarning birinchi galdagi asosiy vazifasi, bolalarga aynan kattalarning yong‘inga qarshi faoliyatlarining kichiraytirilgan shaklida, o‘yin ko‘rinishida, faoliyatning mazmun va mohiyatini “buni qilish mumkin emas” eng asosiysi, nima uchun mumkin emasligini batafsil tushuntirish kerak ekanligi alohida ta’kidlanadi. [12]. JSSTining ma’lumotiga ko‘ra dunyoda barcha jarohatlarning 6%ini termik kuyishlar tashkil etadi va bu holat yil sayin oshib borishi kuzatilmoqda. Kuyishdan vafot etganlarning 21%i bolalarga to‘g‘ri keladi. Kuyish jarohatlarining 60%i erkaklarga va 20%i ayollarga to‘g‘ri keladi. Bolalardagi kuyishlarning 84%i maktabgacha va 16%i maktab yoshidagi bolalarda qayd etilib, ularning 55%i 1-3 yoshdagi bolalar bo‘lgan. Kuyishlarning 69,5%i shahar va 30,4%i qishloq bolalariga to‘g‘ri kelgan. E’tiborlisi shundaki, bolalarda kuyishlarning 93%i -termik, 2%i -ximyoviy moddalar bilan va 5% boshqa har xil kuyishlar tashkil qilgan.[13,16]. Borisova M.M., Baranenko M.A. va b. (2013) [15] larning ilmiy o‘rganish natijalariga ko‘ra Rosssiya Federatsiyasida har yili 250 mingdan ortiq yong‘in holatlari qayd etiladi va uning natijasida 14 mingdan ortiq odam bevaqt dunyodan o‘tadilar va ularning 800 tadan oshig‘i bolalar. Bolalarni yong‘in xavfidan saqlash bo‘yicha qoidalar bilan tanishtirish turli xil

usullar: kattalar bilan suhbat, badiy so‘zlarni ishlatish, ko‘rgazmali materiallardan foydalanish yoki yaqin joylarda joylashgan yong‘inni o‘chirish qismlariga ekskursiyalar tashkil qilish kabi tadbirlarni maktabgacha yoshdagi bolalarni 4 guruhga, 2-3, 4-5, 5-6 va 6-7 yoshdagilarga bo‘lib, har bir yoshdagilarning o‘ziga xos-xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘rgatish va o‘qitish ishlarini tashkil qilishni taklif qiladi va bularning nisbatan yaxshi samara berishini ta’kidlaydi. T.N. Pavlenko, O.V. Golovkolarning (2015) [17] ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, kuyishdan bolalar orasida o‘lim uchunchi o‘rinni egallaydi, Rossiyada esa stotsionarlarda bu ko‘rsatkich 1,2% ga teng. Taxlillar shuni ko‘rsatganki, 45,7% kuyishlar erta yoshdagi bolalar hisobiga ro‘yhatga olingan va har uchtadan bitta holat bir 1yoshgacha bo‘lgan bolalarga (10,3%), 18,6%i -3-7 yoshdagi, 22,6% -7-14 yoshdagi va 13,4%i 12-18 yoshdagi bolalarga to‘g‘ri kelib, kasalxonaga yotganlarning 66%ini o‘g‘il va 34%ini qiz bolalar tashkil etib, o‘g‘il bolalarda kuyish ikki barobarga yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Kuyishlarning 55%i -qaynagan suvda, 24,1%i -olovda, 11,9%i -qizigan predmetlarda, 5,5%i - elektrojarohatlar, 3,0%i bug‘da va 0,5%i har xil kimiyoviy moddalar ta’sirida yuzaga kelgani aniqlangan. A.M.Muxametzyanovning (2009) [18] bergan ma’lumotlariga qaraganda Rossiyada har yili 800 mingdan ortiq kuyishlar bilan odamlar murojaat qiladilar, ulardan 180-200 mingi kasalxonalarga yotqizilgan, 15 mingdan ortig‘i vafot etagan. Ularning 85-90% tehnatga yaroqli odamlar va bolalar sanaladi. Natijada 22,8% gacha odamlar nogiron bo‘lib qolgan. Muallif olgan ilmiy natijalarga ko‘ra, termik kuyishlarning 75,5%i bolalarga to‘g‘ri kelib birinchi o‘rinni egallagan. Erta yoshdagi bolalarda qaynoq suyuqliklar bilan kuyishlar 89,5%ni tashkil etishi aniqlangan. Maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan jarohatlarning aksariyat qismi ko‘z jarohatlari bilan bog‘liq va og‘ir asoratlari bilan xarakterlanadi. Tojikistonda o‘tkazilgan ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2009 yilda bolalarda sodir bo‘lgan jarohatlar 27,9%ini, 2010 yilda -27,3%ini tashkil qilib, eng ko‘p ko‘z jarohatlari 3-6 yoshdagi bolalarda va qishloqlarda o‘g‘il bolalarda nisbatan ko‘p uchragan [19, 20]. Rossiyaning Perm o‘lkasida amalga oshirilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, 2014 va 2015 yillarda jami 39 801 ta holatda odamlar ko‘z jarohatlari bilan murojaat qilgan va uning 4078 nafarini (10,2%) bolalar tashkil qilgan. Kasalxonaga ulardan 1-17 yoshdagilardan 41 nafari yotqizilgan. Ulardan 30 nafari (73%) o‘g‘ibl bolalar va 11 nafari (27%) qiz bolalar bo‘lgan. Aziyat chekkanlarning 23 nafari jarohatni -uylarida, 17 nafari -ko‘chada, 1 kishi maktabda olgan. E’tiborli jihati shundaki, 41 nafar jarohatlangan bolalarda 43 ta ko‘z jarohati qayd etilgan, 31 nafarida jarohat (72%), 8 nafarida (19%) kontuziya va 4 nafarida (9%) kuyish sodir bo‘lgan [21]. G.Z.Galeeva va b.larning (2017) [22] bergan xulosalari ko‘rsatadiki, bolalarda ko‘z jarohatlar jami bolalardagi jarohatlarning 9-10%ini tashkil etadi. Mualliflarning ta’kidlashlaricha bolalarda jarohatlanish yosharish xususiyatiga ega bo‘lib asosan 4-7 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda etakchilik ahamiyatga egaligi aytiladi. Ta’kidlanadiki, ko‘proq ko‘z jarohatini 2 yoshdan kattalar oladilar (23%), 3-4 yoshda -17%, 5-6 yoshda -15%, 7-8 yoshda -13%, 9-11 va 12-16 yoshda -16% ni tashkil etgan. Nisbatan ko‘z jarohatlari yilning issiq oylarida (38,3%) ayniqsa shahar bolalari orasida ko‘proq kuzatilgan.

Ko‘z jarohatlari ichida bolalarning ulushi 10-20%ni tashkil etib, keyingi yillarda ko‘payish holati kuzatilmoqda, buning asosiy sabablaridan biri bu profilaktika tizimining etarli darajada tashkillashtirilmaganligi sanaladi. Bolalarda ko‘z jarohatlarining dinamikasiga birinchi galda yosh omilining ta’siri katta bo‘lib, ko‘p miqdordagi jarohatlanishlar katta maktab yoshidagilarda (12-18

yosh) -29,4%, keyingi o‘rinda maktabgacha yoshdagilar -27,7%, keyin kichik maktab yoshdagilar -23,2%, maktabgacha yoshdan oldingi davr -17% va kam holatlarda ko‘krak yoshdagilarda – 2,7% ga teng ekanligini ko‘rish mumkin. Ko‘z jarohatlarining boshqa jarohatlardan o‘ziga xos farqlari shundaki, jarohatlarning 45,5%i- ko‘chada, 33,9%i -uyida, 13,5%i -maktabda, 7,1%i -bolalar bog‘chalarida olganlar. Muallifning xulosalashicha, 44,6% ko‘z jarohatlar -ehtiyotsizliklar sababli, 36,6%i -o‘yinlar vaqtida sodir bo‘lganligi aniqlangan. [23]

Elektrojarohatlanishlar bolalarda nisbatan kam uchraydi ammo, u o‘zining asoratlari bilan, ya’ni o‘lim darajasi va nogironlik bo‘yicha sezilarli darajada yuqoriligi bilan alohida ahamiyat kashf etadi. Rubsov V.V., Sap N.A.va b. larning (2016) [24] o‘rganish natijalariga qaraganda 2010-1015 yillar davomida Sverdlovsk viloyatining Yekaterinburg shaharidagi

9-son bolalar kuyish markazida yotib davolangan jami 51 ta elektrojarohatlarnganlar o‘rganilganda, ularning 39 nafari o‘g‘il bolalar va 12 nafari qiz bolalar ekanligi, o‘rganilganlarning yarimidan ko‘pini (24) 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 10 nafarini 13-15 yoshdagi o‘spirinlar, 9 nafarini kichik maktab yoshdagi va 8 nafarini 4-7 yoshdagi bolalar tashkil qilganligi ta’kidlanadi. E’tiborli jihati shundaki, elektrojarohatlarning epidemiologiyasida aziyat chekkanlarning (39) 76%i elektrojarohatlarni turmush sharoitidagi elektrouskanalar bilan bevosita muloqatlar natijasida olgan bo‘lsalar, 12 nafari (24%) baland kuchlanishli tarmoqlarida olganlar.

Maktab yoshigacha bolalarda jarohatlanishlarning yana bir turi bu yangi tug‘ilgan chaqoloqlarda tug‘ma son suyagining chiqishi sanaladi. O‘zbekiston respublikasining Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy markazining Samarkand filialida amalga oshirilgan ilmiy o‘rganishlar natijasiga qaraganda, 1988 yilda markazga jami 311 nafar qayd qilingan kasallik tufayli bolalar murojaat qilganlar, ularning 39 nafarida (35,3%) chap tomonlama, 55 nafarida (49,3%) o‘ng tomonlama va 17 nafarida (15,4%) ikki tomonlama son suyagining tug‘ma chiqishi kuzatilgan. Ularning 17,3%i jarrohlik yo‘li bilan davolanganlar. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda 48,6% holatlarda bu kabi tug‘ma jarohatlar bola yurib boshlagan paytda aniqlaniladi [25,26]. R.N.Akalaev, G.N.Suxodolova va b. larning (2018) [27] keltirgan ma’lumotlariga qaraganda AQShda har yili 1,5 mln bolalar va o‘smirlar orasida zaharlanishlar kuzatiladi va bu umumiy zaharlanishlarning 68%ini tashkil etishi aytiladi. Mualliflarning o‘tkazgan bevosita tadqiqotlariga ko‘ra, 2011 - 2015 yillarda Moskva shahrining N.A.Filatov nomidagi 13-sonli bolalar klinik shifoxonasining toksikologiya bo‘limida yotib chiqqan jami 6788 nafar va Respublika shoshilinch tibiiy yordam markazi toksikologiya bo‘limiga qabul qilingan 1788 nafar zaharlangan bolalar o‘rganilganli, bolalar orasida, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda har xil turmush sharoitidagi zaharli moddalardan zaharlaninishlarning yuqoriligini ko‘rsatadi. E’tiborli jihati shundaki, zaharlanganlarning 63,5%i aynan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tashkil qilgan, eng achinarlisi bu jarayon yil sayin o‘sish xususiyatiga ega, buning asosiy sabablaridan biri oilada turmush sharoitlarida ishlatiladigan zaharlovchi vositalari bo‘lib va dori-darmonlarning noto‘g‘ri saqlanishi va ota-onalarning bee’tiborliklari sanaladi.

**Xulosalar**

1. Yuqorida o‘rganilib taxlil etilgan adabiyotlarda keltirilgan ilmiy xulosalardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, keyingi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladang mamlakatimizda ham

bolalar, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar orasida jarohatlanishlar, xususan turmushdagi jarohatlanishlarning ulishi katta va o‘sish xususiyatiga ega.

2. Bolalarda, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlarning tarqalishidagi tibbiy-ijtimoiy jihatlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot izlanishlar aksariyat hollarda chet ellarda, xususan Rossiya Federatsiyasining alohida viloyat va katta shaharlarida, shuningdek MDH davlatlarida amalga oshirilgan. Mamlakatimizxda, xususan biz ilmiy izlanishni rejalashtirilayotgan Xorazm Viloyati misolida maktabgacha yoshdagi bolalarda turmushdagi jarohatlanish o‘rganilmagan.
3. Taxlillar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlarning aksariyat qismi uylarda, ko‘chada, bolalar bog‘chalarida, sport maydonchalarida ota-onalar va tarbiyachilarning bolalarni qorovsiz qoldirishlari natijasida, ularning bee’tiborliklari sababli sodir bo‘layotganligi aniqlandi. Shu bilan birga, bolalarga erta yoshdan oilada, tarbiya muassasalarida jarohatlanishlar yuzaga kelish sabablari bo‘yicha xavfsizlik koidalari bo‘yicha etarlicha bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘z vaqtida berilmaganligida ekanligi aniqlandi.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turmushdagi jarohatlanishlar va uning tarqalish sabablariga yo‘naltirilgan adabiyotlarni o‘rganish va taxlillar asosida xulosa shuki, mamlakatimizda, qolaversa ayrim o‘ziga xos-xususiyatlari bilan boshqa viloyatlardan farq qiluvchi Xorazm viloyati materiallari asosida mazkur jarayonni kompleks ijtimoiy-gigienik jihatdan ilmiy o‘rganishni taqoza etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Children is health and environment ^ developing action plans / L. Licari [et al.]. -S. I. :WHO Regional Office for Europe, 2006.-119 p.
2. Vyazmin A.M., Sannikov A.L. i dr. Xarakteristika detskogo travmatizma v Arxangelskoy oblasti // Ekologiya cheleloveka. – 2009.- №8.-S.31-34.
3. Beleskiy A.V., Lomat L.N. Detskiy travmatizm v Respubliki Belarus: strategiya profilaktiki i puti realizatsii na 2013-2015 godы //Meditsinskie novosti.-2013.-№7.-S. 4-12.
4. Krestyashin V.M. Profilaktika povrejdeniy u detey rannogo vozrasta // Pediatriya.-2003.-№6.- S. 1-2.
5. Ualiev S.D., Uteuliev Ye.S. i dr. Epidemiologiya i profilaktika detskogo travmatizma // Vestnik KAZNMU.-2018.- № 3.- S. 363-365.
6. Golovko O.V., Pavlenko T.N. dr. Kliniko-statisticheskiy analiz tetskogo travmatizma v g.Orenburge // The Journal of scientific articles “Health and Education Millennium”, 2017/Vol/ 19/ № 11.-P.128-132.
7. Rondыrev V.B., Krasnova Ye.A. Profilaktika detskogo travmatizma // Natsionalnaya assotsiatsiya uchenыx (NAU).-2021.-№65.- S.31-33.
8. Maxmutov A.T., Sakiev K.Z. i dr. Sotsialno-gigienicheskiy problemы dorojno-transportnogo travmatizma //Gigiena truda i meditsinskaya ekologiya.-2016.-№1 (50).-S.3-7.

9. Medvedova Ye.Yu., Olxina Ye.A. Osobennosti formirovaniya navыkov bezopasnogo povedeniya na dorogax u doshkolnikov s OVZ i invalidnostyu //Karelskiy nauchnыy jurnal.-2019.-T. 8.-№1(26).-S.28-31.
10. Dimova U.V. Profilaktika detskogo dorojno-tarnsportnogo travmazizma v usloviyax vvideniya federalnoy obrazovatelnoy programmы doshkolnogo obrazovaniya // Mir nauki, kulturы, obrazovaniya.-2023.-№2 (99).-S.193-195.
11. Savenkova Ye.N., Yefimov A.A. i dr. Osobennosti povrejdeniy, voznikayuщix v usloviyax nesmertelnoy avtomobilnoy travmы u detey-peshexodov raznogo vozrasta // Meditsinskie nauki. Klinicheskaya meditsina.-2018.-№3 (47).-S. 69-76.
12. Lizunova Ye.V. K voprosu o pojarnoy bezopastnosti detey starshego doshkolnogo vozrasta // Samarskiy nauchnqy vestnik.-2013.- №3 (4).-S.55-57.
13. Kayumova G.M., Ganieva R.R. i dr. Epidemiologiya ojogovogo travmatizma u detey za 2017 god // Forum molodыx uchenыx.-2019.-№3 (31).-S.450-455.
14. Sakolov T.B. Texnologicheskiy protsess formirovaniya u doshkolnikov pravovoy kulturы uchastnikov dorojnogo dvijeniya v usloviyax dopolnitelnogo obrazovaniya: rezultatы empiricheskogo issledovaniya // Jurnal Kazaxskogo gosudarstvennogo universiteta kulturы i skusstv.-2013-. №4.- S.44-47.
15. Borisova M.M., Baranenko M.A. Doshkolnikam ob osnovax protivopojarnoy bezopasnosti v podvijnqx igrax // Sovershennoe doshkolnoe obrazovanie.-2013.-№6.-S.40-45.
16. Ganieva R.R., Gilyazova A.R. i dr. Epidemiologiya ojogovogo travmatizma u detey za 2018 god // Forum molodыx uchenыx.-2019.-№3 (31).-S.261-265.
17. Pavlenko T.N., Golovko O.V. Mediko-sotsialnqe aspekti termicheskoy travmq u detey v gorode Orenburge // Zdorove naseleniya i sreda obitaniya .-2015.-№12.-T. 30.- S.35-38.
18. Maxametziyanov A.M. Mediko-sotsialnыe aspekti ojogovogo travmatizma v respublike Bashkortostan // Vestnik RUDN, seriya Meditsina.-2009.- №4.- S.80-83.
19. Karim-zade X.D. Osobennosti travm organa zreniya u dedey // Vestnik OGU.- №14.- (133).-S. 174-177.
20. Karim-zade X.D., Eskina E.N. dr. Kliniko-epidemiologicheskie aspektы detskogo oftalmotravmatizma // Nauchno-meditsinskiy jurnal “Vestnik Avetsennы”.-2016.-№2.-S. 48-52.
21. Gavrilova T.V., Chereshneva M.V. i dr. Detskiy glaznoy travmatizm v Peremskom krae // Permchk5iy meditsinskiy jurnal.-2017.-tom XXXIV.-№6.-C.67-71.
22. Galeeva G.Z., Rascheskov A.Yu. Osobennosti detskoy travmq glaza //Oftolmologiya.-2017.-№9 (110).- tom 2.- S. 63-66.
23. Tremasova K.A., Kulikova M.P. dr. Sosotoyanie organa zreniya posle kontuziy glaznogo yabloka u detey v respublike Mardoviya // Vestnik mariyskogo gosudarstvennogo universiteta seriya “selskoxozyaystvennыe nauki. Ekonomicheskie nauki”.-2020.-№3.-T.6.- S. 1-4.
24. Rubsov V.V., Sap N.A., Shtukaturov A.K. Osobennosti lecheniya i reabilitatsii detey s elektrotermicheskoy travmoy // Vestnik RGMU.-2016.-№5.-S.51-54.
25. Kaxxarov A.S., Ibragimov S.Yu. dr. Otdalennыe rezultatы operativnogo lecheniya vrojdyonnogo vыvixa dedra // Uzbekskiy jurnal klinicheskix sluchaev.-2022.-T.2.-№1.-S.46-50.